O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 25 - aprel 154-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 5-apreldagi 220-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash to`g`risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-185-son qarori hamda **Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 5-apreldagi 220-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash,** O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-185-sonli qarori hamda **Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 5-apreldagi 220-10-0-Q/22-son qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil muborak Ramazon oyining boshlanishi 2 aprel kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo`limi (I.Saidikarimov), O‘zbekiston musulmonlar idorasining tuman vakilligi (O.Sodiqov) hamda boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda Ramazon oyining karantin qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda, milliy an’ana va qadriyatlarga mos va munosib holda o‘tkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Joylarda mazkur tadbirlarni o‘tkazishda ushbu muborak oyning mazmun-

mohiyatida mujassam bo‘lgan insoniylik, shukronalik, sabr-qanoat kabi fazilatlarni e’zozlash, mamlakatdagi tinch va farovon hayotni qadrlash, oilalar hamda mahallalarda mehr-oqibat va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlash, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladigan ma’rifiy tadbirlar va targ‘ibot ishlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilsin.

4. Tuman hokimining matbuot kotibi – (D.Ismoilova), va boshqa ommaviy axborot vositalariga ramazon oyini o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**